

Tumanimizda joriy yilgi paxta yig'im-terimi mavsumini uyushqoqlik bilan tashkil etish bo'yicha ko'rgazmali seminar o'tkazildi

Rishton tumanida joriy yilgi paxta yig'im-terimi mavsumini uyushqoqlik bilan tashkil etish, yetishtirilgan hosilni o'z vaqtida va sifatli yig'ib-terib olish, shuningdek, ochiq maydonlarga va g'o'za qator oralariga g'alla ekishni sifatli o'tkazish masalalariga bag'ishlangan ko'rgazmali seminar o'tkazildi.

Seminarda qishloq xo'jaligi sohasi mas'ullari, sektor rahbarlari, paxta-to'qimachilik va g'allachilik klasterlari vakillari, mutasaddi tashkilotlar, fermerlar hamda mahalla faollari ishtirot etishdi.

Seminarda viloyat hokimi o'rinosasi Alibek Tursunov, tuman hokimi Bahodir Xoliqovlar paxta terimi oldidan g'o'za maydonlarini defoliatsiyalash ishlarini amalga oshirish, mavsumda terimchi va hasharchilarga yetarli shart-sharoit yaratish, ularga kunlik issiq ovqat tashkil etish, terim pulini har besh kunda tarqatish, imkoniyatdan kelib chiqib kunlik pul to'lanishini yo'lga qo'yish, mavsumda munosib ishtirot etgan terimchilarni klasterlar tomonidan qo'shimcha rag'batlantirish kabi masalalarga alohida to'xtalib o'tishdi.

Shuningdek, seminar davomida ochiq maydonlarga va g'o'za qator oralariga g'alla ekishni o'z vaqtida va sifatli o'tkazish, ekin maydonlarini fosforli va kaliyli o'g'itlar bilan o'g'itlash bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olindi.

2023-08-24 10:50:43